



BOSHLANG'ICH SINFLARDA PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA ISHLARINING O'RNI

Amirova Nodira Shamshiyevna

*Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Psixologiya yo'nalishi 3-bosqich
talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchisining shaxsiy fazilatlari va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. O'qituvchining mehribonlik, sabr-toqat, empatiya, adolatparvarlik, mas'uliyatlilik kabi fazilatlari o'quvchilarning psixologik rivojlanishi, o'qishga bo'lgan motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuv jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qituvchining shaxsiy sifatlarini rivojlantirish yo'llari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'qituvchi shaxsi, pedagogik fazilatlar, psixologik ta'sir, empatiya, motivatsiya, shaxsiy rivojlanish, ta'lim sifati.

Kirish: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining umumiy, kasbiy va maxsus fanlarni o'zlashtirishida integrativ yondashuvdan foydalanishning asosiy maqsadlariga quyidagi maqsadlarni kiritish mumkin:

- bo'lajak mutaxassisda fuqarolik ongini shakllantirish va rivojlantirish;
- ta'lim oluvchi o'zligini shakllantirish uchun ijtimoiy-pedagogik va kommunikativ muhit yaratish;
- ta'lim oluvchi ijtimoiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy meyorlar asosida zarur bilimlarni olishlarini ta'minlash;
- ta'lim oluvchida loyihalash, tadqiqotchilik, refleksif, kommunikativ va boshqa mahoratlarni shakllantirish hamda davomli rivojlantirish;



-ta'lim oluvchining kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini tarbiyalash va hokazo [1].

Biz integrativ yondashuvning qanday tamoyillarga asoslanishi va qanday tashkil etuvchi komponentlardan iboratligi hamda mazkur yondashuvni amalga oshirishdan qanday asosiy maqsadlar ko'zda tutilishi xususida zarur xulosalar chiqara olish imkoniga ega bo'ldik. Endi esa integrativ yondashuvning tub mohiyatidan kelib chiqqan holda, mutaxassislarining mazkur yondashuv qanday qo'llanilishi zarurligi haqidagi muloahazalariga o'rin berib, ularni umumlashtirish (integratsiya qilish) orqali o'z tadqiqotlarimiz doirasidagi takliflarimizni tavsiya etamiz. YE.N.Puzankovanning taklifiga ko'ra, integrativ yondashuv: -fanlararo;

-fanning o'zida;

-shaxslararo;

-shaxsning o'zida kabi darajalarda joriy etilishi maqsadga muvofiqdir [2]

Integrativ yondashuvning fanlararo aloqadorlik darajasida joriy etilishi o'zida integratsiyaning nazariy-mundarijali, meyoriy-uslubiy, tashkiliy-boshqaruv aspektlarini mujassam etadi. Masalan:

-pedagogikaning falsafa bilan integratsiyalashuvi pedagogikada metodologik funksiyaning mukammal bajarilishini ta'minlaydi;

-pedagogika va psixologiyadagi integratsiyaning natijasi o'quv-tarbiya ishlarining takomillashuviga zamin yaratadi;

-pedagogika bilan biologiya o'rtasidagi integratsiya insonning tabiiy zaxiralari va imkoniyatlarining ta'lim-tarbiya va shaxsni rivojlantirishga yo'naltirishni nazarda tutadi;

-pedagogika va sotsiologiyaning integratsiyalashuvida inson shaxs sifatida rivojlanishining muhim aspektlari namoyon bo'ladi;

-tarix va pedagogikaning integratsiyasi orqali ulkan qamrovli tarbiyaviy potensial yuzaga chiqadi va hokazo [3].



Pedagogik nazariya va amaliyotning murakkabligi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlash masalasining ko'pqirrali ekanligi hamda bu borada bir-biriga mazmunan zid qarashlarning mavjudligi integrativ yondashuvni joriy etishda turli nuqtai nazarlarni integratsiyalash zaruratini keltirib chiqaradi. Integrativ yondashuvni o'qitish amaliyotiga joriy etishning pedagogik vazifa va dars mashg'ulotidan ko'zda tutilgan maqsaddan kelib chiqib, quyidagi usullarini keltirib o'tish mumkin.

1. Integrativ yondashuvni qo'llashning komplekslashtirish (yalpilashtirish) usuli. Integrativ yondashuvni qo'llashni kompleks usulda amalga oshirishning predmeti, asosan, tarbiya masalasi ustivorlik qilgan pedagogik jarayonlar hisoblanadi. Bunda, integrativ yondashuvni joriy etishdan avval bir qator pedagogik faktorlarning, xususan, o'quv materiallari faktorlari, psixologik, tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik faktorlarning o'zaro uyg'unlashganligi nazarda tutiladi. Kompleks usul yuqorida sanab o'tilgan faktorlarning ta'sirini rejalashtirishni hamda pedagogik jarayon shakllarini ustivor qadriyatlar atrofida birlashtirishni taqozo etadi [4].

2. Integrativ yondashuvni qo'llashning yaxlitlash usuli.. Mazkur usulni qo'llashdan ko'zlangan asosiy g'oya pedagogik hodisaning yaxlit tarzda bir qator komponentlar yig'indisidan mukammalroq ekanligi, o'rganilayotgan obekt yaxlit xususiyat va afzalliklarining uni tashkil etuvchi komponentlar hamda elementlardagi sifatlar va afzalliklar yig'indisidan yaxshiroq ekanligini amalda e'tirof etishdan iborat. Pedagogik obektlarni tahlil va tadqiq etishda yaxlitlash usulining quyidagi aspektlari muhimdir:

-murakkab tizimlarga kirgan elementlarning alohida olingan xususiyatlari va tizimga kirgandan keyin orttirgan xususiyatlari o'rtasidagi tafovutni aniqlash; - pedagogik jarayonning tuzilmaviy va dinamik xususiyatlarini belgilash;

-pedagogik jarayonning invariantlarini ajratib ko'rsatish va hokazolar V. [5].



3. Tizimlashtirish usuli. Integrativ yondashuvni joriy etishning tizimli usuli umumilmiy metodologiyaning negizi sifatida qaraladi. Tizimli usuldagi asosiy kategoriyalarga quyidagilar kiradi:

-tizimlashtirilgan obekt (uning tarkibidagi tarkib hosil qiluvchi elementlar va ularning o‘zaro aloqadorliklari ko‘rsatiladi) va tizimli tadqiqotlar (turli yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma’lumotlarni olish va ularga ishlov berishning usullaridan foydalanish;

-element (tizimning eng birlamchi qismi) va integratsiya (tizim elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar);

-tizimning tarkibi (obektdagi barcha elementlar yig‘indisi) va tuzilmasi (elementlar o‘rtasidagi aloqalarning tartibli tavsifi);

-funktsiyalar (tizimdagi alohida elementlarning o‘rni va tizimning yaxlit holdagi ahamiyati, tizim ichidagi aloqalar va munosabatlarning mazmuni); -tizim haqidagi tashqi tasavvurlar va uning boshqarilishi [6].

Xulosa

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining shaxsiy fazilatlari ta’lim jarayonining psixologik va pedagogik muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omildir. O‘qituvchining mehribonligi, sabr-toqati, adolatlilik, empatiyasi va mas’uliyatliligi o‘quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirishga, ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga hamda ijobiy psixologik muhit yaratishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari nafaqat ta’lim sifati, balki o‘quvchilarning emotsional holati va ijtimoiy moslashuviga ham bevosita ta’sir etadi. Shu bois, zamonaviy pedagogik amaliyotda o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, ularni psixologik tayyorlash, kommunikativ va emotsional kompetensiyalarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. I.A.Larionova, Integrativniye tendensii v professionalnoy podgotovki spetsialistov sotsialnoy sferi, avtoreferat dissertatsii doktora ped. nauk M: 2009



2. YE.N.Puzankova, Sovremennaya pedagogicheskaya integratsiya, yeyo xarakteristiki, "Obrazovaniye i obshestvo" 2007, №1
3. A.N.Nadyurmagomedov, Integratsionniye protsessi v pedagogicheskom obrazovanii, dis. dok. ped. nauk. Rostov na Donu, 1999. S.126.
4. Y.I.Dik Integratsiya uchebnix predmetov, Sovremennaya pedagogika, 1987 №9.
5. A.P.Belyayeva, Integrativno-modulnaya pedagogicheskaya sistema professionalnogo obrazovaniya / A.P.Belyayeva – SPb, 1997
6. Shaxgulari V. V. Podgotovka budushix uchiteley v tvorcheskoy deyatelnosti v shkole. A.: G'itim, 2002.-255 s